
Langarda xrizantema gullari yetishtirilmoqda

Gul yetishtirib ro'zg'or tebratayotgan oilalar yurtimizda juda ko'p. Qo'shtepa tumanida ham gulchilik bilan shug'ullanayotganlar soni tobora ortib bormoqda. "Langar" mahallasida yashovchi E'tiborxon Xalilova ham oila a'zolari bilan birga gul yetishtirib kelmoqda.

32 million so'mlik imtiyozli kredit asosida xonadonda issiqxona qurilgan. Issiqxonada gul ko'chatlari yetishtirilib har oyda 5 million so'mdan daromad olmoqda.

Shuningdek 2022 yilda oila a'zolarining 3 nafariga 10 sotixdan 30 sotix ijaraga yer berilgan. Shu yerdan oila ikki marotaba hosil olishga erishmoqda. Bu yil birinchi hosilga kartoshka ekilib, 50 million so'm daromad olgan bo'lsa, ikkinchi marotaba takroriy 10000 tup xrizantema gul ko'chatlari ekilib, yana 80 million so'm daromad olindi.

- Astoydil qilingan mehnat o'z samarasini beradi, - deydi E'tiborxon Xalilova. - Tomorqamizdagi xrizantema gullari turfa ranglarda ochildi. Ko'chatlarimizning o'z xaridorlari bor. Mehnatimiz ortidan ro'zg'orimiz obod. Qolaversa qo'shimcha 5 ta ish o'rni yaratib, mahallada yashovchi xotin-qizlarni bandligini ta'minlab, ularga ham gul yetishtirish sir-asrorlarini o'rgatayapmiz.

Albatta, mehnatga yarasha daromadga ega bo'lish, har bir insonni yanada ko'proq mehnat qilishga, izlanishga undaydi.











2024-11-11 09:48:13